

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI	223
--	-----

Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI

Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich

Namangan davlat texnika universiteti

mustaqil tadqiqodchisi,

e-mail: x.yuldashev@hamkorbank.uz,

UDK 336.71:657.633

ORCID:0009-0005-5512-8161

Abstract. The article analyzes the current state of the processes of organizing and conducting internal audit in commercial banks against the requirements of national regulation and international standards. It substantiates that the weakest link in the internal audit cycle is the stage of forming the audit coverage: although the applicable regulations require that all units and operations of a bank fall within the audit scope, they do not prescribe a methodology for compiling the set of audit objects or for prioritizing them. The author develops an internal audit coverage register (IACR) that consolidates the bank's units, operations, and risk-bearing processes and prioritizes audit objects by risk level. The register comprises a three-dimensional structure, a six-criterion audit priority index (API), an adjustment coefficient for assurance coverage, and a four-class periodicity matrix.

Keywords: internal audit, commercial bank, audit coverage, audit object, internal audit coverage register, audit universe, risk-based planning, audit priority index, assurance mapping, audit periodicity, annual audit plan, supervisory board, audit committee.

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish va o'tkazish jarayonlarining amaldagi holati me'yoriy talablar hamda xalqaro standartlar kesimida tahlil qilingan. Ichki audit siklidagi eng zaif bo'g'in audit qamrovini shakllantirish bosqichi ekanligi asoslangan: amaldagi me'yoriy hujjatlar bankning barcha bo'linmalari va operatsiyalarini qamrab olishni talab qilsa-da, audit obyektlari majmuini tuzish va ularni ustuvorlashtirish metodikasini belgilamaydi. Muallif tomonidan bankning bo'linmalari, operatsiyalari va riskli jarayonlarini birlashtiruvchi hamda audit obyektlarini risk darajasi bo'yicha ustuvorlashtiruvchi ichki audit qamrovi reyestri (IAQR) ishlab chiqilgan. Reyestr uch o'lchamli tuzilma, olti mezonli audit ustuvorligi indeksi (AUI), ishonch manbalari qamrovi bo'yicha korektirovka koeffitsiyenti hamda to'rt sinfli davriylik matritsasini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, tijorat banki, audit qamrovi, audit obyekti, ichki audit qamrovi reyestri, riskka yo'naltirilgan rejalashtirish, audit ustuvorligi indeksi, ishonch manbalari xaritasi, audit davriyligi, yillik audit rejasi, kuzatuv kengashi, audit qo'mitasi.

Аннотация. В статье проанализировано текущее состояние процессов организации и проведения внутреннего аудита в коммерческих банках в разрезе нормативных требований и международных стандартов. Обосновано, что наиболее слабым звеном аудиторского цикла является этап формирования охвата аудита: действующие нормативные акты требуют охвата всех подразделений и операций банка, но не устанавливают методику формирования совокупности объектов аудита и их приоритизации. Автором разработан реестр охвата внутреннего аудита (РОВА), объединяющий подразделения, операции и рискованные процессы банка и определяющий приоритетность объектов аудита по уровню риска. Реестр включает трёхмерную структуру, индекс приоритетности аудита, основанный на шести критериях, коэффициент коррективы по охвату иными источниками уверенности и четырёхклассную матрицу периодичности.

Ключевые слова: внутренний аудит, коммерческий банк, охват аудита, объект аудита, реестр охвата внутреннего аудита, риск-ориентированное планирование, индекс приоритетности аудита, карта источников уверенности, периодичность аудита, годовой план аудита.

KIRISH

Ichki audit funksiyasining bank uchun yaratadigan qiymati, birinchi navbatda, uning *nimani* tekshirayotgani bilan belgilanadi. Yirik tijorat banki yuzlab biznes-jarayonlarni, o'nlab mahsulot liniyalarini, keng filial tarmog'ini va sho'ba tashkilotlarni birlashtiradi; ichki audit xizmatining shtati esa, qoida tariqasida, bank xodimlari umumiy sonining bir foizidan oshmaydi. Shu bois ichki audit siklidagi eng qimmatli qaror auditning qanday o'tkazilishi



emas, balki cheklangan auditorlik resursi qaysi obyektlarga va qanday davriylikda yo'naltirilishi to'g'risidagi qarordir. Bu qaror noto'g'ri qabul qilinganda, tekshiruvning o'zi qanchalik sifatli bajarilishidan qat'i nazar, bank uchun eng muhim risklar auditorlik e'tiboridan chetda qoladi.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining "Banklarda ichki audit funksiyasi" (2012) hujjati bu masalaga alohida tamoyil bag'ishlagan: bankning har bir faoliyati va har bir tarkibiy qismi, shu jumladan, autsorsingga berilgan faoliyat ham ichki auditning umumiy qamroviga kirishi lozim (Prinsip 6), ichki audit esa doimiy funktsiya sifatida faoliyat yuritishi kerak (Prinsip 8). Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA)ning 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan Ichki auditning global standartlari bu talabni yanada aniqlashtiradi: 9.1-standart bosh auditoridan tashkilotning boshqaruv, risklarni boshqarish va nazorat jarayonlarini tushunishni, 9.3-standart metodologiyalarni belgilashni, 9.4-standart audit rejasini kamida yiliga bir marta o'tkaziladigan hujjatlashtirilgan risk baholashga asoslashni, 9.5-standart esa ishonch (assurance) xizmatlarini ko'rsatuvchi boshqa ichki va tashqi provayderlar bilan muvofiqlashtirishni hamda ularning ishiga tayanish imkoniyatini ko'rib chiqishni talab qiladi. Oxirgi talab risk qamrovini kengaytirish va takroriy tekshiruvlarning oldini olishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida bank ichki auditi Markaziy bank Boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-raqam bilan ro'yxatga olingan; 2026-yil 8-iyuldagi 19/14-son qarori tahririda) bilan tartibga solinadi. Nizomning 18-bandiga muvofiq, bankning barcha operatsiya turlari va uning barcha tarkibiy bo'linmalari faoliyati ichki auditorlik tekshiruv doirasiga kiradi; 8-bandga ko'ra, audit bo'yicha yillik reja bosh auditor tomonidan ishlab chiqiladi va kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi; 14-band esa byudjet yillik reja yoki bank risk profilidagi o'zgarishlar ehtimolini inobatga olgan holda yetarli va moslashuvchan bo'lishi lozimligini belgilaydi. Nizomning 19, 22, 23, 24 va 25-bandlari ichki audit majburiy ravishda baholashi lozim bo'lgan yo'nalishlarni — ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlari, kapital monandligi va likvidlik, komplayens nazorat va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish, korporativ boshqaruv hamda moliyaviy hisobot masalalarini sanab o'tadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit qamrovi masalasining nazariy asoslari bir necha manbalar tizimi orqali shakllangan. Bazel qo'mitasining yuqorida keltirilgan hujjati bilan bir qatorda, uning "Banklar uchun korporativ boshqaruv tamoyillari" (2015) hujjati ichki auditni risklarni boshqarish arxitekturasidagi uchinchi chiziq sifatida joylashtiradi, "Operatsion riskni boshqarishning asosiy tamoyillari" (2021) hujjati esa bank faoliyatini jarayonlar kesimida tavsiflash va har bir jarayon uchun nazorat nuqtalarini belgilash zarurligini asoslaydi. COSOning "Ichki nazorat — integratsiyalashgan asos" (2013) va "Korxona risklarini boshqarish" (2017) modellari auditor uchun baholash mezonlari manbai vazifasini o'tasa, ISO 31000:2018 risklarni baholashning umumiy metodologik ramkasini beradi.

Ilmiy adabiyotda audit qamrovini risk asosida shakllantirish g'oyasi Selim va McNamee ishlarida ilgari surilgan bo'lib, mualliflar ichki auditning risklarni boshqarish paradigmasiga o'tishi audit rejasining tashkilot risk profiliga bevosita bog'lanishini talab qilishini ko'rsatgan. Allegrini va D'Onza yirik italyan kompaniyalari misolida o'tkazgan empirik tadqiqotida audit rejalarining sezilarli qismi hamon tashkiliy tuzilma va an'anaviy davriylik asosida tuzilishini, risk baholari esa ko'pincha rasmiy xarakter kasb etishini aniqlagan. Castanheira, Rodrigues va Craig riskka yo'naltirilgan ichki auditni joriy etish ehtimoli tashkilot hajmi, sohaviy tartibga solish darajasi va bosh auditorning maqomiga bog'liqligini asoslagan. Coetzee va Lubbe esa riskka yo'naltirilgan audit topshiriqlari samaradorligini oshirishning kalit sharti audit rejasini tashkilotning risk registri bilan bevosita bog'lash ekanini ko'rsatgan.

Milliy adabiyotda tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish tartibi, uning tashqi auditdan farqlari, ichki nazorat tizimidagi o'rni va me'yoriy asoslari yetarlicha yoritilgan. Ayni paytda audit obyektlari majmuini shakllantirish, ularni ustuvorlashtirish va qamrov to'liqligini o'lchash masalalari alohida tadqiqot predmeti sifatida ko'rib chiqilmagan. Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar audit rejasini hujjatlashtirilgan risk baholashga asoslashni talab qiladi, milliy Nizom to'liq qamrovni majburiy qiladi, ilmiy adabiyot esa amaliyotda rejalarining hamon tashkiliy tuzilmadan kelib chiqib tuzilishini qayd etadi. Bu uch yo'nalishni birlashtiruvchi, ya'ni qamrov obyektlarini yagona reyestrda jamlaydigan va ularni risk bo'yicha ustuvorlashtiradigan operatsion-metodik yechim taklif etilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil (Bazel qo'mitasi tamoyillari, IIA global standartlari va Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablarini solishtirish uchun), tizimli-strukturaviy tahlil (ichki audit siklini bosqichlarga ajratish



va “tor joy”ni aniqlash uchun), funksional bo’shliqlar tahlili (gap analysis), ko’p mezonli baholash va vaznlash usuli (audit obyektlarini ustuvorlashtirish modelini qurish uchun), shuningdek, shartli misol usuli (reyestrning ishlashini namoyish etish uchun) qo’llanilgan. Tadqiqotning axborot bazasini Bazel qo’mitasi va IIA hujjatlari, COSO modellari, O’zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi va Markaziy bank me’yoriy hujjatlari hamda xorijiy ilmiy nashrlar tashkil etadi, maqola matnini tayyorlash jarayonida esa sun’iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida ichki auditni tashkil etishning amaldagi holati

Ichki auditni tashkil etish bo’yicha milliy me’yoriy talablar xalqaro standartlarga sezilarli darajada muvofiqlashtirilgan. Shu bilan birga, talablarning tashkiliy ifodasi va ularning amaliyotdagi bajarilishi o’rtasida bir qator farqlar kuzatiladi.

1-jadval.

Ichki auditni tashkil etish talablarining tashkiliy ifodasi va tipik muammolar

Talab	Me’yoriy asosi	Tashkiliy ifodasi	Amaliyotdagi tipik muammo
Mustaqillik va xolislik	Nizom 5, 10, 12-bandlari	Ichki audit xizmati kengash va audit qo’mitasiga bevosita bo’ysunadi; xodimlar oxirgi 12 oyda ishlagan sohani tekshira olmaydi	Kichik banklarda kadrlar cheklovi tufayli 12 oylik “sovish” davrini ta’minlash qiyin
Kengash tomonidan tayinlanish	Nizom 6-bandi	Bosh auditor va xodimlar kengash qarori bilan tayinlanadi	Amaliy tanlov ko’pincha boshqaruv tavsiyasi asosida shakllanadi
Byudjet mustaqilligi	Nizom 13, 14-bandlari	Byudjet kengash (yoki audit qo’mitasi) tomonidan tasdiqlanadi	Byudjet risk-profil o’zgarishiga moslashuvchan emas; malaka oshirish xarajatlari qoldiq tamoyil bo’yicha ajratiladi
Rag’batlantirishning moliyaviy natijadan mustaqilligi	Nizom 16-bandi	Rag’bat bank moliyaviy ko’rsatkichlariga bog’lanmaydi	Ichki audit xodimlari mehnatiga haq to’lash bozor darajasidan orqada qolishi kadrlar oqimiga sabab bo’ladi
To’liq qamrov	Nizom 18-bandi; Bazel Prinsipi 6	Barcha operatsiya turlari va bo’linmalar tekshiruv doirasiga kiradi	Qamrov obyektlarining yagona ro’yxati yuritilmaydi; outsorsing va sho’ba tashkilotlar chetda qoladi
Riskka asoslangan rejalashtirish	Nizom 8, 14-bandlari; GIAS 9.4	Yillik reja bosh auditor tomonidan tuziladi, kengash tasdiqlaydi	Reja tashkiliy tuzilma asosida tuziladi; risk bahosi bilan bog’lanish hujjatlashtirilmaydi
Boshqa ishonch manbalari bilan muvofiqlashtirish	GIAS 9.5	Tashqi auditorlar va Markaziy bank bilan hamkorlik (Nizom 26-bandi)	Ishonch manbalari xaritasi tuzilmaydi; takroriy tekshiruvlar yuzaga keladi
Rotatsiya	Nizom 11-bandi	Besh yilda bir martadan kam bo’lmagan davriylikda	Rotatsiya rasmiy tarzda amalga oshiriladi, tanqidiy fikrlash saqlanishi baholanmaydi

Mustaqillik, hisobdorlik va tayinlash masalalari me’yoriy jihatdan yetarli darajada tartibga solingan va ularning muammolari asosan resurs xarakteriga ega.

Ichki auditni o’tkazish jarayonining bosqichlari va “tor joy” tahlili

Ichki audit jarayonini beshta ketma-ket bosqichga ajratish va har bir bosqichda me’yoriy tartibga solinganlik darajasini baholash quyidagi manzarani beradi.



2-jadval.

Ichki audit jarayoni bosqichlarining me'yoriy tartibga solinganlik darajasi

Bosqich	Mazmuni	Me'yoriy asosi	Tartibga solinganlik darajasi
1. Qamrovni shakllantirish va yillik rejalashtirish	Audit obyektlari majmuini aniqlash, ustuvorlashtirish, resurs taqsimlash	Nizom 8, 18-bandlari; GIAS 9.1, 9.3, 9.4, 9.5	Past. Qamrov chegarasi belgilangan, obyektni aniqlash va ustuvorlashtirish metodikasi yo'q
2. Topshiriqni rejalashtirish	Tekshiruv dasturi, mezonlar, tanlanma, muddat	Nizom 6-bobi; GIAS 13-tamoyili	O'rta. Umumiy talablar mavjud, batafsil tartib bank ixtiyorida
3. Dala ishlari	Testlash, dalil yig'ish, kamchiliklarni hujjatlashtirish	Nizom 6-bobi; ichki audit standartlari	O'rta-yuqori. Kasbiy standartlar bilan yetarli qamrab olingan
4. Hisobot	Auditorlik hisoboti, tavsiyalar, adresatlar	Nizom 7-bobi, 27-bandi	Yuqori. Hisobot berish tartibi aniq belgilangan
5. Ijro monitoringi (follow-up)	Tavsiyalar ijrosini kuzatib borish, samaradorlikni baholash	Nizom 26, 27-bandlari; GIAS 15.2	O'rta. Majburiyat belgilangan, dalil va qoldiq risk metodikasi yo'q



Tahlil natijasi bir ma'noli: jarayonning **birinchi bosqichi** eng kam tartibga solingan bosqich hisoblanadi. Bu holatning oqibati boshqa bosqichlarnikidan sifat jihatidan farq qiladi. Ikkinchi–beshinchi bosqichlardagi nuqson tekshiruv *sifatini* pasaytiradi va keyingi tekshiruvda tuzatilishi mumkin. Birinchi bosqichdagi nuqson esa obyektni auditorlik ko'rish maydonidan butunlay chiqarib yuboradi: reyestrda yo'q obyekt hech qachon tekshirilmaydi va u bo'yicha hech qanday kamchilik aniqlanmaydi. Aynan shu sababli qamrovni shakllantirish bosqichi ichki audit tizimining “tor joyi” hisoblanadi.

Ilmiy yangilik: ichki audit qamrovi reyestri (IAQR)

Aniqlangan bo'shliqni to'ldirish uchun bankning bo'linmalari, operatsiyalari va riskli jarayonlarini birlashtiruvchi hamda audit obyektlarini risk darajasi bo'yicha ustuvorlashtiruvchi ichki audit qamrovi reyestri (IAQR) ishlab chiqildi.

Reyestrning asosiy metodik yechimi shundan iboratki, audit obyekti bitta o'lcham bo'yicha emas, uchta o'lchamning kesishmasi sifatida aniqlanadi. Tashkiliy o'lcham bankning bo'linmalari, filiallari, sho'ba tashkilotlari va autsorsingga berilgan faoliyat uchastkalarini qamrab oladi. Operatsion o'lcham bank amalga oshiradigan operatsiya turlari va mahsulot liniyalarini o'z ichiga oladi. Jarayon o'lchami esa mijoz murojaatidan yakuniy hisobga olishgacha bo'lgan uchidan-uchiga biznes jarayonlarni ifodalaydi. Audit obyekti — bu ma'lum jarayonning ma'lum operatsiyalar bo'yicha ma'lum bo'linmalar tomonidan bajariladigan yaxlit qismi. Aynan shunday ta'rif strukturaviy tafovutni bartaraf etadi: jarayonning bo'linmalararo o'tish nuqtalari alohida obyektning ichida qoladi va tekshiruv qamroviga tushadi.

Har bir audit obyekti bo'yicha kamida quyidagi 15 ta rekvizit yuritiladi: 1) unikal kod (masalan, K-01-02 — soha, jarayon, kichik jarayon); 2) obyekt nomi; 3) jarayon egasi; 4) ishtirok etuvchi bo'linmalar ro'yxati; 5) qamrab olingan operatsiya turlari; 6) tegishli risk toifalari; 7) moliyaviy ko'lam (aktivlar, daromadlar yoki operatsiyalar hajmidagi ulushi); 8) axborot tizimlari va ma'lumotlar manbalari; 9) tegishli me'yoriy talablar; 10) oxirgi ichki audit sanasi va uning natijaviy reytingi; 11) obyekt bo'yicha ochiq tavsiyalar soni; 12) ikkinchi himoya chizig'i tomonidan qamrov darajasi; 13) tashqi audit va Markaziy bank tekshiruvlari bilan qamrov darajasi; 14) audit ustuvorligi indeksi (AUI) va uning tarkibiy baholari; 15) ustuvorlik sinfi va belgilangan davriylik.



1-rasm. Ichki audit qamrovi reyestrining tuzilishi va ishlash mantig'i

Har bir obyekt oltita mezon bo'yicha 1 dan 5 gacha ballanadi va vaznlangan yig'indi hisoblanadi:

$$AUI = \sum w(i) \times M(i),$$

bu yerda $M(i)$ — i -mezon bo'yicha ball (1–5), $w(i)$ — mezon vazni.

3-jadval.

Audit ustuvorligi indeksining mezonlari va vaznlari

Kod	Mezon	Vazni w(i)	Baholash asosi
M1	Xos (inherent) risk darajasi	0,25	Riskning yuzaga kelish ehtimolligi va bank uchun ta'siri ko'paytmasi asosida 1–5 shkalaga keltirilgan baho
M2	Moliyaviy ahamiyatlilik	0,15	Obyektning aktivlar, daromadlar yoki operatsiyalar hajmidagi ulushi
M3	Jarayonning murakkabligi va o'zgaruvchanligi	0,10	Yangi mahsulot, IT tizimining almashuvi, reorganizatsiya, jarayon ishtirokchilari soni
M4	Nazorat muhitining holati	0,20	Oxirgi audit reytingi, ochiq va muddati kechikkan tavsiyalar soni, takroriy kamchiliklar mavjudligi
M5	Tartibga solish sezgirligi	0,20	Prudensial normativlar, AML/CFT, iste'molchilar huquqlari va moliyaviy hisobotga daxldorlik darajasi
M6	Auditdan o'tmagan davr	0,10	Oxirgi tekshiruvdan o'tgan oylar soni (36 oy va undan ortiq — 5 ball)

Hisoblangan indeks GIAS 9.5-standarti talabiga muvofiq boshqa ishonch manbalari qamrovi hisobga olingan holda korektirovka qilinadi:

$$AUI^* = AUI \times c,$$

bu yerda $c = 1 - 0,1 \times A$;

A — obyektning boshqa ishonch manbalari (ikkinchi himoya chizig'i, tashqi audit, Markaziy bank tekshiruvi) tomonidan oxirgi 12 oy ichida qamrab olinganlik darajasi: A = 0 — qamrov yo'q; A = 1 — qisman qamrov; A = 2 — to'liq va dolzarb qamrov. Shunga ko'ra $c \in \{1,0; 0,9; 0,8\}$. Korektirovkaning maksimal ta'siri 20 foiz



bilan cheklangan — bu ichki auditning boshqa manbalarga haddan tashqari tayanishining oldini oladi va uning mustaqil bahosi funksiyasini saqlaydi.

4-jadval.

Ustuvorlik sinflari va audit davriyligi matritsasi

Sinf	AUI* oralig'i	Risk darajasi	Minimal davriylik	Yillik resursning taxminiy ulushi
A	4,01–5,00	Kritik	12 oyda kamida bir marta	40 %
B	3,01–4,00	Yuqori	18 oyda kamida bir marta	30 %
C	2,01–3,00	O'rta	36 oyda kamida bir marta	20 %
D	1,00–2,00	Past	60 oyda bir marta yoki uzluksiz monitoring	10 %

Miqdoriy baho ba'zi obyektlarning huquqiy ahamiyatini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli AUI* qiymatidan qat'i nazar, quyidagi yo'nalishlar har yili reja tarkibiga kiritiladi: jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimi (Nizomning 23-bandi); kapital monandligi va likvidlik ko'rsatkichlari (22-band); axborot tizimlarining ishonchiligi va kiberxavfsizlik (19-band); moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayoni (25-band); korporativ boshqaruv (24-band). Bu ro'yxat reyestrda alohida belgi bilan qayd etiladi va rejalashtirishda avtomatik ravishda hisobga olinadi.

Reyestri yuritish bosh auditorning vakolatiga kiradi. Reyestr kamida yiliga bir marta to'liq qayta baholanadi (GIAS 9.4-standarti talabi), shuningdek, quyidagi hodisalar yuz berganda oraliq yangilanadi: yangi bank mahsuloti yoki kanali joriy etilganda; tashkiliy tuzilma o'zgarganda; yirik outsorsing shartnomasi tuzilganda; Markaziy bank yoki tashqi auditorlar sezilarli kamchilik aniqlaganda; bankning risk-appetit bayonoti qayta ko'rib chiqilganda. Reyestrning yillik versiyasi yillik reja bilan birga kuzatuv kengashiga taqdim etiladi va uning ajralmas ilovasi hisoblanadi.

Reyestri shartli ma'lumotlar asosida aprobatsiya qilish

Modelning ishlashini ko'rsatish uchun shartli bankning to'qqizta audit obyekti bo'yicha hisob-kitob keltiriladi. Ma'lumotlar shartli bo'lib, faqat hisob mantig'ini namoyish etish maqsadida tuzilgan.

5-jadval.

Audit obyektlarini ustuvorlashtirish natijalari (shartli misol)

Kod	Audit obyekti	M1	M2	M3	M4	M5	M6	AUI	A	c	AUI*	Sinf
I-02	IT infratuzilma va kiberxavfsizlik	5	3	5	4	4	4	4,20	0	1,0	4,20	A
K-01	Yirik korporativ kreditlash	5	5	3	4	4	2	4,10	0	1,0	4,10	A
A-01	AML/CFT va mijozni bilish tizimi	5	2	4	4	5	1	3,85	1	0,9	3,47	B*
I-01	Masofaviy bank xizmatlari	4	4	5	3	4	2	3,70	1	0,9	3,33	B
K-02	Mikroqarz va iste'mol kreditlari	4	3	4	3	3	3	3,35	1	0,9	3,02	B
G-01	G'aznachilik va valyuta operatsiyalari	4	4	3	2	4	3	3,40	2	0,8	2,72	C
M-01	Moliyaviy hisobotni tayyorlash	3	5	2	2	4	2	3,10	2	0,8	2,48	C*
F-01	Filial kassa operatsiyalari	3	2	1	3	2	4	2,55	1	0,9	2,30	C
X-01	Xodimlar va mehnatga haq to'lash	2	1	2	2	1	4	1,85	0	1,0	1,85	D
	JAMI										27,46	

Izoh: * — obyekt hisoblangan sinfdan qat'i nazar, majburiy yillik qamrov ro'yxatiga kiradi.

Hisob-kitob natijalari uchta muhim xulosani beradi.

Birinchisi — ustuvorliklarning qayta taqsimlanishi. Tashkiliy tuzilma asosida tuzilgan an'anaviy rejada filial



kassa operatsiyalari (F-01) an'anaviy ravishda yuqori e'tibor oladi, IT infratuzilmasi va kiberxavfsizlik (I-02) esa ko'pincha alohida bo'linma sifatida yiliga bir marta rasman tekshiriladi. Reyestr esa I-02 ni eng yuqori ustuvorlikka (4,20 ball) chiqaradi, F-01 ni esa C-sinfga joylashtiradi. Bu farq jarayonning murakkabligi ($M3 = 5$) va uzoq vaqt auditdan o'tmaganligi ($M6 = 4$) omillarining rasmiy hisobga olinishi natijasidir.

Ikkinchisi — takroriy qamrovning kamayishi. G'aznachilik operatsiyalari (G-01) va moliyaviy hisobot (M-01) bo'yicha xos risk yuqori bo'lsa-da, ular tashqi audit va Markaziy bank tomonidan yaqin o'tmishda to'liq qamrab olingan ($A = 2$). Korrektirovka natijasida bu obyektlar B-sinf dan C-sinfga o'tadi va bo'shagan resurs qamrovsiz qolgan yo'nalishlarga yo'naltiriladi. Ayni paytda M-01 majburiy yillik ro'yxatda bo'lgani uchun baribir reja tarkibida qoladi — bu miqdoriy va me'yoriy mezonlarning o'zaro to'ldiruvchanligini ko'rsatadi.

Uchinchisi — risk bo'yicha vaznlangan qamrovning o'lchanishi. A va B sinflari to'qqizta obyektning beshtasini tashkil etsa-da, ular umumiy risk vaznining 66,0 foizini qamrab oladi (18,12 / 27,46). Bu ko'rsatkich kuzatuv kengashiga rejaning risk qamrovini bitta son orqali baholash imkonini beradi: an'anaviy "reja bo'yicha 24 ta tekshiruv o'tkaziladi" shaklidagi axborot bunday imkoniyatni bermaydi.

Audit qamrovi samaradorligining ko'rsatkichlari

Reyestrning joriy etilishi qamrovni miqdoriy o'lchash imkonini beradi. Quyidagi olti ko'rsatkichni yillik reja bilan birga kuzatuv kengashiga taqdim etish taklif etiladi.

6-jadval.

Ichki audit qamrovi samaradorligining tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich	Hisoblash usuli	Iqtisodiy mazmuni
1	Reyestr to'liqligi (RT)	Reyestrda kiritilgan obyektlar / bank jarayonlari klassifikatoridagi obyektlar, %	Qamrov chegarasining me'yoriy talabga muvofiqligi
2	Sikl qamrovi (SQ)	Oxirgi 36 oyda auditdan o'tgan obyektlar ulushi, %	Qamrovning vaqt bo'yicha uzluksizligi
3	A-sinf qamrovi	12 oy ichida auditdan o'tgan A-sinf obyektlari ulushi, %	Eng yuqori riskli sohalar himoyasi (maqsad — 100 %)
4	Risk bo'yicha vaznlangan qamrov (RVQ)	$\Sigma AUI^*(\text{auditdan o'tgan}) / \Sigma AUI^*(\text{barcha}), \%$	Rejaning haqiqiy risk qamrovi
5	"Oq dog'lar" ulushi	Hech qachon auditdan o'tmagan obyektlar ulushi, %	Tizimli qamrovsizlik belgisi
6	Reja bajarilishi	Bajarilgan topshiriqlar / rejadagi topshiriqlar, %	Resurs rejalashtirishining realligi

Ushbu ko'rsatkichlar ichida 1-, 4- va 5-ko'rsatkichlar mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligidan bevosita kelib chiqadi. Ayni paytda aynan ular ichki auditning qamrov sifatini eng aniq ifodalaydi: 6-ko'rsatkich (reja bajarilishi) 100 foizga yaqin bo'lib, 4-ko'rsatkich (RVQ) past bo'lgan holat bank uchun **eng xavfli signal** hisoblanadi — u reja to'liq bajarilayotganini, biroq uning umuman past riskli obyektlardan tuzilganini bildiradi.

Reyestrning nazariy va amaliy ahamiyati

Taklif etilayotgan reyestr ichki auditni rejalashtirishning tashkiliy paradigmasidan risk paradigmasiga o'tishini operatsion darajada ta'minlaydi. Uning nazariy ahamiyati uchta jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u audit obyekti tushunchasiga aniq ta'rif beradi va rejalashtirishning eng kichik birligini bo'linmadan jarayonga ko'chiradi — bu Bazal qo'mitasining "har bir faoliyat" talabini tashkiliy tuzilmadan mustaqil ravishda ta'minlash imkonini beradi. Ikkinchidan, u qamrov to'liqligini o'lchanadigan kattalikka aylantiradi: reyestr mavjud bo'lmaganda "hamma narsa qamrab olinganmi?" degan savolga prinsipial ravishda javob berib bo'lmaydi, chunki taqqoslash bazasi yo'q. Uchinchidan, u ichki auditni ishonch manbalarining umumiy tizimiga joylashtiradi va uchinchi chiziqning boshqa chiziqlar bilan takrorlanishini kamaytiradi.

Amaliy jihatdan eng muhim natija — kuzatuv kengashi bilan muloqot tilining o'zgarishi. Yillik reja "keyingi yil 24 ta tekshiruv o'tkaziladi" shaklidan "bank risk vaznining 66 foizi keyingi 12 oyda, 93 foizi esa uch yillik sikl davomida qamrab olinadi; qamrovsiz qoladigan obyektlar D-sinfga kiradi va ularning ro'yxati ilovada keltirilgan" shakliga o'tadi. Ikkinchi shakl kengashga rejani tasdiqlash yoki resurslarni oshirish to'g'risida asoslangan qaror qabul qilish imkonini beradi.

Xalqaro standartlar va milliy me'yoriy baza bilan muvofiqlik

Reyestr amaldagi talablarga zid emas, balki ularni operatsionallashtiradi. Nizomning 18-bandi barcha operatsiyalar va bo'linmalar qamrovini talab qiladi — reyestr bu qamrovning hujjatlashtirilgan va tekshiriladigan ifodasi bo'lib xizmat qiladi. 8-band yillik rejani kengash tasdiqlashini belgilaydi — reyestr rejaning asoslantiruvchi hujjati sifatida unga ilova qilinadi. GIAS 9.4-standarti rejani kamida yiliga bir marta o'tkaziladigan hujjatlashtirilgan risk baholashga asoslashni talab qiladi — AUI hisob-kitobi aynan shu hujjatlashtirilgan baho hisoblanadi. GIAS

9.5-standarti boshqa ishonch provayderlari bilan muvofiqlashtirishni talab qiladi — korrektirovka koeffitsiyenti c buni sonli ifodaga aylantiradi. Bazel qo'mitasining 6-prinsipi outsorsingga berilgan faoliyatni ham qamrovga kiritishni talab qiladi — reyestrning tashkiliy o'lchami bunday faoliyatni alohida obyekt sifatida qayd etadi.

Joriy etish shartlari va cheklovlari

Reyestrning samarali ishlashi bir qator shartlarga bog'liq. Birinchi shart — jarayonlar klassifikatorining mavjudligi. Reyestr bankda uchidan-uchiga jarayonlar tavsiflangan va ularning egalari belgilangan bo'lsagina to'liq shakllanadi; bunday tavsif bo'lmagan bankda reyestrni tuzish jarayonlarni xaritalashdan boshlanadi. Ikkinchi shart — ikkinchi himoya chizig'i bilan ma'lumot almashinuvi. M4 va A ko'rsatkichlari risklarni boshqarish va komplayens bo'linmalarining ma'lumotlariga tayanadi; bu ma'lumotlar muntazam va bir xil formatda taqdim etilishi lozim. Uchinchi shart — vaznlarni kalibrlash. 3-jadvaldagi vaznlar ekspert bahosiga asoslangan boshlang'ich qiymatlar bo'lib, har bir bank ularni o'z biznes modeli va risk-appetitiga moslab qayta ko'rib chiqishi hamda kuzatuv kengashida tasdiqlatishi maqsadga muvofiq.

Modelning cheklovlari ham e'tirof etilishi lozim. Ballash tizimi ekspert bahosiga tayangani sababli subyektivlik elementiga ega; uni kamaytirish uchun baholarni ichki audit xizmati va risklarni boshqarish bo'linmasi kelishilgan tarzda belgilashi tavsiya etiladi. Model, shuningdek, obyektlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olmaydi: bir necha o'rta ustuvorlikdagi obyekt yagona zanjirning bo'g'inlari bo'lishi va birgalikda yuqori riskni yuzaga keltirishi mumkin. Bu cheklovni jarayon zanjirlari kesimida agregatlangan AUI* ko'rsatkichi orqali qisman bartaraf etish mumkin. Nihoyat, reyestrni yuritish qo'shimcha mehnat sarfini talab qiladi — kichik banklarda uni soddalashtirilgan, uch mezonli variantda joriy etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish bo'yicha milliy me'yoriy talablar — mustaqillik, hisobdorlik, tayinlash tartibi va budget masalalari — xalqaro standartlarga sezilarli darajada muvofiqlashtirilgan bo'lib, ularning amaliyotdagi muammolari asosan resurs xarakteriga ega. Ayni paytda audit qamrovini shakllantirish, riskka asoslangan rejalashtirish va boshqa ishonch manbalari bilan muvofiqlashtirish masalalari metodik jihatdan tartibga solinmagan.

Ikkinchidan, ichki audit jarayonining beshta bosqichi kesimida o'tkazilgan tahlil eng kam tartibga solingan bo'g'in birinchi bosqich — qamrovni shakllantirish va yillik rejalashtirish bosqichi ekanini ko'rsatdi. Bu bosqichdagi nuqson boshqa bosqichlardagi nuqsonlardan sifat jihatidan farq qiladi, chunki u obyektning auditorlik ko'rish maydonidan butunlay chiqarib yuboradi.

Uchinchidan, mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida ishlab chiqilgan ichki audit qamrovi reyestri bankning bo'linmalari, operatsiyalari va riskli jarayonlarini uch o'lchamli tuzilmada birlashtiradi, audit obyektini ushbu o'lchamlarning kesishmasi sifatida aniqlaydi hamda obyektlarni olti mezonli audit ustuvorligi indeksi ($AUI = \sum w(i) \times M(i)$) va ishonch manbalari qamrovi bo'yicha korrektirovka koeffitsiyenti asosida to'rt sinfga ajratib, har bir sinf uchun minimal audit davriyligini belgilaydi.

To'rtinchidan, shartli ma'lumotlar asosidagi aprobatsiya reyestrning an'anaviy rejalashtirishdan farqli natija berishini ko'rsatdi: ustuvorliklar qayta taqsimlanib, IT infratuzilmasi va kiberxavfsizlik eng yuqori sinfga chiqdi, boshqa manbalar tomonidan qamrab olingan ikkita obyekt esa pastroq sinfga o'tkazildi; reja qamrovi bitta agregat ko'rsatkich — risk bo'yicha vaznlangan qamrov (66,0 foiz) orqali ifodalandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Tijorat banklariga "Ichki audit qamrovini shakllantirish va yillik rejalashtirish tartibi to'g'risida"gi ichki hujjatni ishlab chiqib, kuzatuv kengashida tasdiqlash tavsiya etiladi. Hujjatda audit obyektining ta'rifi, reyestr rekvizitlari, ustuvorlik mezonlari va vaznlari, korrektirovka tartibi hamda sinflar bo'yicha minimal davriylik qat'iy belgilanishi lozim.

Ichki audit qamrovi reyestri yillik audit rejasining majburiy ilovasi sifatida kuzatuv kengashiga taqdim etish va uni kamida yiliga bir marta, shuningdek, yangi mahsulot joriy etilganda, tashkiliy tuzilma o'zgarganda yoki yirik outsorsing shartnomasi tuzilganda oraliq tartibda yangilab borish maqsadga muvofiq.

Ichki audit xizmati, risklarni boshqarish va komplayens nazorat bo'linmalari o'rtasida ishonch manbalari xaritasini (assurance map) yuritish tartibini joriy etish, ya'ni har bir audit obyektini bo'yicha qaysi chiziqli tomonidan qanday qamrov ta'minlanayotganini yagona formatda qayd etib borish taklif etiladi.

Markaziy bankning 3302-son Nizomiga yillik audit rejasi risk baholashning hujjatlashtirilgan natijalariga asoslanishi va rejaga audit obyektlari reyestri ilova qilinishi to'g'risidagi talabni kiritish maqsadga muvofiq. Bu banklararo taqqoslanuvchanlikni ta'minlaydi va nazorat organiga ichki audit qamrovining yetarliligini baholashda yagona mezon beradi.

Reyestrni bir necha tijorat bankining haqiqiy ma'lumotlari asosida empirik validatsiyadan o'tkazish, mezon



vaznlarini statistik usullar bilan kalibrlash hamda modelni audit obyektlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga oluvchi tarzda kengaytirish keyingi tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni: 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-4581969> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni: 2019-yil 11-noyabr, O'RQ-582-son [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-4590452> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2026-yil 8-iyuldagi 19/14-son qarori tahririda, 2026-yil 18-iyulda 3902-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5431666> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/8-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizom: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3254-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2026-yil 8-iyuldagi 19/8-son qarori tahririda, 2026-yil 18-iyulda 3254-1-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-4888804> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
5. Basel Committee on Banking Supervision. The Internal Audit Function in Banks. — Basel: Bank for International Settlements, 2012. — URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs223.pdf> (accessed: 07.08.2026).
6. Basel Committee on Banking Supervision. Corporate Governance Principles for Banks. — Basel: Bank for International Settlements, 2015. — URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d328.pdf> (accessed: 07.08.2026).
7. Basel Committee on Banking Supervision. Revisions to the Principles for the Sound Management of Operational Risk. — Basel: Bank for International Settlements, 2021. — 23 p.
8. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. — Effective 9 January 2025. — URL: <https://www.theiia.org/en/standards/2024-standards/global-internal-audit-standards/> (accessed: 07.08.2026).
9. The Institute of Internal Auditors. The IIA's Three Lines Model: An Update of the Three Lines of Defense. — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2020.
10. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control — Integrated Framework. — New York: AICPA, 2013.
11. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. — New York: AICPA, 2017.
12. ISO 31000:2018. Risk Management — Guidelines. — Geneva: International Organization for Standardization, 2018.
13. Selim G., McNamee D. Risk management and internal auditing: What are the essential building blocks for a successful paradigm change? // International Journal of Auditing. — 1999. — Vol. 3, No. 2. — P. 147–155. — DOI: 10.1111/1099-1123.00055.
14. Allegrini M., D'Onza G. Internal auditing and risk assessment in large Italian companies: An empirical survey // International Journal of Auditing. — 2003. — Vol. 7, No. 3. — P. 191–208. — DOI: 10.1046/j.1099-1123.2003.00070.x.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100